

## **RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT MARKAZINING MAQSADI**

Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlik ruhini umummilliy harakatga aylantirish;

milliy ma'naviyatimizning ma'no-mohiyati, ildizlari, noyob va betakror namunalari, uning bugungi kundagi rivojlanish tamoyillari haqida aniq maqsadga qaratilgan izchil, ta'sirli va zamonaviy usul va vositalardan foydalangan holda ilmiy tadqiqot va targ‘ibot ishlarini olib borish;

vazirlik va idoralar, xududlarda keng aholi vakillari, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, fidoiylik, ularda islohatlarga daxldorlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy qadriyatlar, urf odatlar, muqaddas an'analarimizning hozirgi hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o‘tkazilishini muvofiqlashtirish;

aholi ayniqsa, yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday ichki va tashqi tahdidlarga qarshi qaratilgan tizimli va zamonaviy tashviqot ishlarini olib borish va boshqalar.